



JAMOAT TARTIBIGA TAHDID SOLUVCHI YOLG'ON AXBOROT TARQATISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI

Raimova Diyora Chori qizi

Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20798020>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 20-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 22-iyun 2026 yil

KEYWORDS

jamoat tartibi, jamoat
xavfsizligi, yolg'on xabar,
yolg'on axborot, jinoiy
javobgarlik, xorijiy tajriba,
milliy qonunchilik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg'on xabarlarini tarqatish bilan bog'liq jinoyatlarning huquqiy tabiati, ularning jamiyat va davlat xavfsizligiga ta'siri hamda mazkur qilmish uchun javobgarlik masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yolg'on axborot tarqatganlik uchun nazarda tutilgan javobgarlik choralari o'rganilib, ushbu sohadagi huquqni qo'llash amaliyoti tahlil etilgan. Unda AQSH, Germaniya, Norvegiya, Rossiya Federatsiyasi va Italiya davlatlarning qonunchiligi hamda amaliyoti qiyosiy-huquqiy jihatdan ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida yolg'on xabarlarini tarqatishning oldini olish, axborot xavfsizligini ta'minlash va milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida axborot almashinuvi tezligi va ko'lami sezilarli darajada oshdi. Internet tarmog'i va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan axborotlar jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq ushbu jarayon bilan bir qatorda yolg'on xabarlar va haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarning tarqalishi ham kengaymoqda. Bunday axborotlar aholi o'rtasida sarosima, ishonchsizlik va ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqarishi, jamoat tartibi va xavfsizligiga jiddiy tahdid solishi mumkin. Jamoat tartibiga tahdid soluvchi yolg'on xabarlarini tarqatish zamonaviy axborot makonida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar, tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-siyosiy jarayonlar davrida tarqatiladigan yolg'on xabarlar aholi o'rtasida vahima keltirib chiqarishi hamda davlat organlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois ushbu qilmish uchun javobgarlik masalalarini milliy va xorijiy tajriba asosida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan, jamoat tartibiga tahdid soluvchi yolg'on axborotni tarqatish uchun jinoiy javobgarlikni tahlil qilishda qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, statistik va formal-huquqiy usullar qo'llanildi. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi,

axborot sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xorijiy davlatlar qonunchiligi o'rganildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil orqali turli davlatlarda yolg'on axborot tarqatish uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Ilmiy adabiyotlar, huquqshunos olimlarning qarashlari hamda huquqni qo'llash amaliyoti materiallari tadqiqotning nazariy va amaliy asosini tashkil etdi.

Natijalar. O'zbekistonda yolg'on axborot tarqatishga qarshi kurashishning huquqiy asoslari so'nggi yillarda sezilarli darajada takomillashtirilganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2020-yil 25-dekabrda qabul qilingan O'RQ-658-sonli Qonun¹ bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks hamda Jinoyat kodeksiga tegishli o'zgartirishlar kiritilib, yolg'on axborot tarqatganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik tizimi joriy etildi. Mazkur yondashuv qonun chiqaruvchi tomonidan ushbu qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab bosqichma-bosqich javobgarlikni qo'llash konsepsiyasi tanlanganligini ko'rsatadi. Jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 202²-moddasiga muvofiq², shaxsning qadr-qimmati kamsitilishiga yoki uning obro'sizlantirilishiga olib keladigan yolg'on axborotni tarqatish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida jarima nazarda tutilgan. Agar tarqatilgan yolg'on axborot jamoat tartibi yoki jamoat xavfsizligiga tahdid tug'dirsa, jarima miqdori BHMning 50 baravaridan 100 baravarigacha etib belgilangan. Qonun chiqaruvchining mazkur yondashuvi shaxs manfaatlariga zarar yetkazuvchi axborot bilan jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soluvchi axborot o'rtasida farqlangan huquqiy baho berilganligini anglatadi.

Shu bilan birga, Jinoyat kodeksining 244⁶-moddasida³ ma'muriy preyuditsiya instituti qo'llanilgan bo'lib, yolg'on axborot tarqatganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs ushbu qilmishni takror sodir etgan taqdirda jinoiy javobgarlik yuzaga kelishi belgilangan. Xususan, shaxsning qadr-qimmati yoki obro'siga putur yetkazuvchi yolg'on axborotni takroran tarqatganlik uchun BHMning 150 baravarigacha jarima, 240 soatgacha majburiy jamoat ishlari, ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yilgacha ozodlikni cheklash jazolari nazarda tutilgan. Jamoat tartibi yoki jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg'on axborotlarni takroran tarqatganlik uchun esa BHMning 200 baravarigacha jarima, 300 soatgacha majburiy jamoat ishlari, ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash jazosi belgilangan.

Mazkur normalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston qonunchiligi bu borada mutanosiblik tamoyiliga asoslangan. Ya'ni, birinchi bosqichda ma'muriy ta'sir chorasi qo'llanilib, shaxsga o'z xatti-harakatlarini tuzatish imkoniyati beriladi, faqat huquqbuzarlik takror sodir etilgan taqdirdagina jinoiy javobgarlik masalasi ko'tariladi. Bu jihatdan milliy qonunchilik ayrim davlatlar amaliyotidan farq qiladi. Masalan, Germaniya, Fransiya yoki AQSHning ayrim shtatlarida yolg'on axborot tarqatish bilan bog'liq ayrim qilmishlar uchun birlamchi holatning o'zidayoq jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Biroq mazkur masalada qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Bir tomondan, yolg'on axborotlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali tez tarqalishi sharoitida javobgarlik choralarning kuchaytirilishi jamoat xavfsizligini ta'minlashning zarur vositasi sifatida baholanadi. Ikkinchi tomondan esa, ayrim tadqiqotchilar

¹ O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-658-son Qonuni.

² O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2025.

³ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2025.

yolg'on axborot tushunchasining amaliyotda keng talqin qilinishi so'z erkinligi va fikr bildirish huquqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Shu sababli huquqni qo'llash amaliyotida tarqatilgan ma'lumotning haqiqatga mos emasligi, uning jamoat tartibi yoki jamoat xavfsizligiga real xavf tug'dirganligi hamda shaxsning aybi ishonchli dalillar bilan aniqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksi 244⁶-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlarida mazkur qilmishlarni javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etganlik uchun yanada og'irroq jazo choralarining nazarda tutilganligi qonun chiqaruvchining yolg'on axborotlarni zamonaviy axborot makonidagi jiddiy xavf manbalaridan biri sifatida baholayotganidan dalolat beradi.

Muhokama. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yolg'on xabarlarini tarqatish ko'lemi kengayib, uning salbiy oqibatlarini jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, yolg'on xabarlar va tasdiqlanmagan ma'lumotlarning keng tarqalishi zamonaviy jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan noto'g'ri axborotlar qisqa vaqt ichida minglab, ba'zan millionlab foydalanuvchilarga yetib borib, aholi o'rtasida vahima kayfiyatini yuzaga keltirishi, davlat organlariga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirishi hamda ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazishi ehtimoldan xoli emas.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yolg'on axborot tarqatishga qarshi huquqiy mexanizmlar joriy etilgan bo'lib, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi, jamoat xavfsizligi yoki jamoat tartibiga tahdid soluvchi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari yoki internet orqali tarqatganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Mazkur normalar fuqarolarning so'z erkinligi huquqini e'tirof etgan holda, ushbu huquqni amalga oshirishda mas'uliyat tamoyilini ham mustahkamlaydi. Shu bilan birga, yolg'on axborot tarqatganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasi ilmiy doiralarda bahsli mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Bir guruh olimlar bunday qilmishlarga nisbatan qat'iy choralar qo'llanilishi jamoat xavfsizligini ta'minlashning zarur sharti ekanligini ta'kidlasalar, boshqa tadqiqotchilar ushbu choralar ayrim hollarda so'z erkinligining haddan tashqari cheklanishiga olib kelishi mumkinligini qayd etadilar. Mazkur bahsning dolzarbligi xorijiy davlatlar qonunchiligida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, Fransiya qonunchiligida⁴ ommani chalg'ituvchi yoki jamoat manfaatlariga zarar yetkazuvchi yolg'on axborotni tarqatganlik uchun 569 ming yevrogacha jarima yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

Rossiya Federatsiyasida⁵ esa bunday qilmishlar uchun 500 ming rubldan 5 million rublgacha jarima yoki 160 soatdan 480 soatgacha majburiy jamoat ishlari belgilangan.

Germaniya tajribasi yanada qat'iyroq bo'lib, ayrim hollarda yolg'on axborot tarqatish davlat va jamiyat manfaatlariga qarshi qaratilgan harakat sifatida baholanadi hamda 3 oydan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilishi mumkin.

Birinchi qarashda mazkur jazolar haddan tashqari qat'iydek tuyulishi mumkin. Biroq so'nggi yillarda dezinformatsiyaning saylov jarayonlari, favqulodda vaziyatlar va jamoat xavfsizligi bilan bog'liq holatlarga salbiy ta'siri kuchayib borayotganini hisobga olsak, davlatlarning bunday yondashuvi ma'lum darajada asosli ekanligi ko'rinadi. Shu bilan birga, jazolarning qat'iyligi har doim ham yolg'on axborot tarqalishini kamaytirishga olib keladi,

⁴ Barendt E. Freedom of Speech. Oxford University Press, 2018.

⁵ Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации / Под ред. В.М. Лебедева. М., 2023.

degan xulosa biryoqlama bo'lar edi. Chunki muammoning ildizi ko'pincha fuqarolarning media savodxonligi darajasi, rasmiy axborot manbalarining tezkorligi va ularga bo'lgan ishonch bilan ham bog'liqdir.

Norvegiya tajribasi⁶ ushbu masalada muvozanatli yondashuvning namunasi sifatida e'tiborni tortadi. So'z erkinligi demokratik qadriyat sifatida yuqori darajada himoya qilinishiga qaramasdan, tuhmat, haqorat va yolg'on axborot tarqatganlik uchun jarima hamda bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Bu esa demokratik jamiyatlarda ham axborot erkinligi mutlaq huquq sifatida emas, balki boshqa shaxslarning huquqlari va jamoat manfaatlari bilan uyg'unlikda amalga oshirilishini ko'rsatadi.

AQSH tajribasi ham alohida e'tiborga loyiq. Odatda AQSH so'z erkinligining eng kuchli himoyachilaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Biroq ayrim ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatning 19 ta shtatida ommaviy axborot vositalari orqali tuhmat, haqorat yoki jamoaviy ayblovlar bilan bog'liq qilmishlar uchun 10 ming dollardan 250 ming dollargacha jarima yoxud 6 oydan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilishi mumkin. Bu holat hatto so'z erkinligi ustuvor hisoblangan huquqiy tizimlarda ham yolg'on axborotning xavflilik darajasi e'tirof etilishini anglatadi.

Italiya qonunchiligining o'ziga xos jihati shundaki, javobgarlik faqat dastlabki axborot manbasiga emas, balki yolg'on ma'lumotni qayta tarqatgan shaxslarga ham tatbiq etiladi. Bunday hollarda 500 yevrodan 2000 yevrogacha jarima yoki 6 oydan 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Ushbu yondashuv raqamli makonda axborotni tarqatayotgan har bir shaxs ma'lum darajada mas'ul ekanligi haqidagi konsepsiyaga asoslanadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, yolg'on axborot tarqatishga qarshi kurashishda qat'iy huquqiy mexanizmlar keng qo'llanilmoqda. Biroq rivojlangan demokratik davlatlar amaliyoti mazkur choralarni qo'llashda so'z erkinligini asossiz ravishda cheklab qo'ymaslik masalasiga ham alohida e'tibor qaratayotganini ko'rsatadi. Shu sababli yolg'on axborot uchun javobgarlikni belgilashda axborotning haqiqatga mos emasligi, uning jamoat tartibi yoki xavfsizligiga real zarar yetkazish ehtimoli mavjudligi hamda aybdor shaxsning qasdi ishonchli tarzda aniqlanishi muhim hisoblanadi. Demak, yolg'on xabarlar tarqalishiga qarshi kurashishda faqat jazolash mexanizmlariga tayanish yetarli emas. Huquqiy javobgarlik bilan bir qatorda media savodxonlikni oshirish, rasmiy axborot manbalarining ochiqligi va tezkorligini ta'minlash hamda jamiyatda axborotni tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Jamoat tartibiga tahdid soluvchi yolg'on axborotlarni tarqatish jamiyat xavfsizligiga zarar yetkazuvchi ijtimoiy xavfli qilmishlardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi mazkur jinoyatning sodir etilish imkoniyatlarini yanada oshirmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ushbu qilmish uchun javobgarlik belgilangan bo'lsa-da, huquqni qo'llash amaliyotini xorijiy davlatlar tajribasi asosida yanada takomillashtirish zarur. Xususan, yolg'on axborot tarqatishga qarshi kurashishda huquqiy, tashkiliy va profilaktik choralarni kompleks ravishda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

⁶ European Commission. Tackling Online Disinformation: A European Approach. Brussels, 2018.

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2025.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-658-son Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
6. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
7. Voljanin V.V. Уголовно-правовые меры противодействия распространению недостоверной информации. – Москва: Юрлитинформ, 2021.
8. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации / Под ред. В.М. Лебедева. – Москва: Норма, 2023.
9. Barendt E. Freedom of Speech. – Oxford: Oxford University Press, 2018.
10. McQuail D. McQuail's Mass Communication Theory. – London: Sage Publications, 2020.
11. European Commission. Tackling Online Disinformation: A European Approach. – Brussels, 2018.
12. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO). Journalism, Fake News and Disinformation: Handbook for Journalism Education and Training. – Paris: UNESCO, 2018.

INNOVATIVE
ACADEMY